

# BO‘LAJAK TARBIYACHINING KREATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

**Aziza Bobokeldiyeva,**
mustaqil tadqiqotchi,
**Lobar Bobokeldiyeva,**
Zoologiya kafedrasi, TerDU

## Annotatsiya:

*Ushbu maqolada yurtimizda ta’lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko‘tarish, intellektual salohiyati yuqori bo‘lgan pedagog kadrlar tayyorlash jarayoni, bolalarda didaktik o‘yinlarni tashkil etishda bo‘lajak tarbiyachilarning kreativ qobiyatini rivojlantirishning shart-sharoitlari, pedagogik muammolari va yechimlar to‘g‘risida yoritilgan.*

## Kalit so‘zlar:

*faoliyat, didaktik o‘yin, tarbiyachi, kreativlik, qobiliyat, kritik fikrlash, ijodkorlik, yangilik, mustaqillik, divergent tafakkur, innovatsiya.*

## Аннотация:

*В данной статье рассматривается процесс выведения системы образования в нашей стране на новый уровень, процесс подготовки педагогических кадров с высоким интеллектуальным потенциалом, условия развития творческих способностей будущих педагогов в организации дидактических игр для детей, педагогические проблемы и пути их решения.*

## Ключевые слова:

*деятельность, дидактика, игра, педагог, креативность, способность, критическое, мышление, креативность, новизна,*

***самостоятельность, дивергентное мышление, инновация.***

## Abstract:

***This article discusses the process of raising the education system in our country to a new level, the process of training pedagogical personnel with high intellectual potential, the conditions for developing the creative abilities of future educators in organizing didactic games for children, pedagogical problems and solutions.***

## Key words:

***activity, didactic, game, educator, creativity, ability, critical thinking, creativity, novelty, independence, divergent thinking, innovation.***

## Kirish.

Yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko'tarish, intellektual salohiyati yuqori bo'lgan pedagog kadrlar tayyorlash jarayonini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish hamda oliy pedagogik ta'lim qamrovini kengaytirish yo'nalishida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, rivojlangan bir qator davlatlar qatorida bo'lajak pedagoglarda shakllantirilishi lozim bo'lgan "zamonaviy shaxsga xos fazilatlar" majmui ishlab chiqilganligi va o'sib kelayotgan yosh avlodning aqliy va intellektual rivojlanishining didaktik jihatdan turli usullar, yondashuvlar asosida muntazam ravishda tizimli rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotganligi ushbu maqolada muhim o'rin tutadi, bu esa o'z navbatida ta'lim tizimida yuqori intellektual salohiyatga va mustahkam amaliy ko'nikmaga ega bo'lgan yosh izlanuvchi tarbiyachilarni yetishtirib berish, bo'lajak tarbiyachilarni kreativ qobiliyatini rivojlantirishda ilg'or texnologik vositalarni qo'llash, ta'limda yaratuvchanlikka keng yo'l ochish kabi samarali tajribalarini o'zlashtirishning metodik tizimini ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqaradi.

Asosiy qism. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-son Qonuni talablariga muvofiq, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachi-pedagoglarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning ijodiy faoliyatini oshirish hamda nazariya va amaliyotning uzviy integratsiyasini ta'minlash muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida belgilangan. Biroq, bugungi kunda bo'lajak tarbiyachilarda ijodkorlik, yangilikka, kreativlikka, mustaqillikka hamda divergent tafakkurni shakllantirish, yaratuvchanlikka bo'lgan motivatsiyaning sustligi, metodi hamda malakasini puxta o'zlashtirmaganligi, bolalar bilan ishlash jarayonida ko'plab qiyinchilik va duch keladigan muammolarga vaziyatlarni hal etish va oldini olishga qaratilgan bir qator vazifalarning mavjudligi va dolzarbligi ushbu tadqiqot ishini olib borishni taqozo etdi.

Zero, yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek - "Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar - ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir".

Kreativlikni rivojlantirish va oshirish masalalari yuzasidan jahon mamlakatlarining yetuk olimlari ham ko'plab tadqiqotlarni olib borishgan.

K.D.Ushinskiyning fikriga ko'ra - "Bolalar o'yini ko'p asrlik tarixga ega, u insonning o'zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan" - deb yozgan edi. Y.A.Komenskiy, A.S.Makarenko, P.F.Lestgaflarning nazariyalari hozirgacha bolalar o'yinlarini tashkil etishda katta ahamiyatga egadir. Y.A.Komenskiyning fikriga ko'ra, "o'yin - bolaning barcha turdagi qobiliyatlarini rivojlantiradigan muhim aqliy faoliyatidir, o'yin orqali olam, dunyo haqidagi tasavvurlari kengayadi va boyiydi, nutqi rivojlanadi. Bola o'yin davomida tengqurlari bilan do'stlashadilar".

Bugunda zamonaviy ta'lim sharoitida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirishda didaktik o'yinlarni to'g'ri va samarali tashkil etish muhimdir. Davlat talablarida ham interfaol ta'lim va integrativ o'qitishga alohida e'tibor qaratilgan. Bolalarda didaktik o'yinlar vositasida kreativ qobiliyatlarini shakllantirishning pedagogik strategiyasini taqozo etadi. Bu orqali tarbiyachi didaktik o'yinlar vositasida kreativ qobiliyatlarini shakllantirishning barcha jihatlarini hamda ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun mohirona qo'llaydi. Bunda bolalarning quyidagi jihatlari inobatga olinishi lozim:

- bolalarning qiziqishlarini inobatga olish;
- ularning kuchli va zaif tomonlari anglash;
- ta'lim berish uslubini to'g'ri tanlash;
- yoshga oid xususiyatlarini bilish;
- shaxsiy-kreativ sifatlarini o'rganish.

Bolalarda didaktik o'yinlar vositasida kreativ qobiliyatlarini shakllantirish jarayonida pedagogik amaliyotda quyidagilarni inobatga olish zarur:

1. Har bir bolaning individualligi va imkoniyatlarini qanday bo'lsa shu holatda qabul qilish.
2. Bolalarga kreativ qobiliyatlarini shakllantirishning maqsadi ularning ham "umumiy maqsadi" bo'lishiga erishish.
3. Bolalarda didaktik o'yinlar vositasida kreativ qobiliyatlarini shakllantirish - mashg'ulotlar davomida har bir bola imkoniyatiga, qiziqishiga qarab yo'naltirilgan holda taqsimot qilish tarbiyachi-pedagogning muhim vazifasidir.

Bolalarda didaktik o'yinlar vositasida kreativ qobiliyatlarini shakllantirishning shaxsiy yo'naltirilgan rivojlanishi va tarbiyalanishi jihatidan ustuvorlikni ko'rsatadi. Bolaning shaxsiy rivojlanishi quyidagi maqsadlarga erishishni ko'zlaydi:

1. Didaktik o'yinlar eng optimal ravishda qanday motorik, kognitiv, kreativ rivojlanayotganliklariga asoslanishi kerak.
2. "Yaratuvchanlik qobiliyatlarini shakllantirish - samaradorligi tarbiyachi-pedagog kasbiy mahorati, bola-

larni individual va jamoaviy rivojlantirish metodlari hamda usullarini puxta egallagan bo‘lishi lozim”.

3. Bolalarda didaktik o‘yinlar vositasida kreativ qobiliyatlarini shakllantirish - mashg‘ulotlar davomida har bir bola salohiyatiga yo‘naltirilgan vazifalarni taqsimot qilish tarbiyachi-pedagogning muhim vazifasidir.

4. Bolalarda didaktik o‘yinlar vositasida kreativ qobiliyatlarini shakllantirishning muhim tarbiyaviy jihati sifatida o‘z imkoniyatlari, iqtidorlarini “kashf” qilishga “maydon” yaratishdir.

Didaktik o‘yinlar vositasida talabalarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish quyidagi oltita pedagogik o‘lchamlar orqali bolani har tomonlama barkamol rivojlantirishga pedagogik shart-sharoit yaratadi:

**1. Jismoniy faollikni oshirish.** Jismoniy mashqlarning o‘ziga xos shakllaridan individual jismoniy qobiliyatlarni mustaqil ravishda rivojlantirish uchun foydalanish mumkin.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, maktabga boradigan bolalarning 30-50% da, surunkali kasalliklar mavjuddir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni sog‘lom va barkamol bo‘lishi uchun, bola organizmini kasalliklarga qarshi kurashida, immunitetini oshirish va sog‘ligini mustahkamlashda ularni sport mashg‘ulotlariga jalb etish maqsadga muvofiqdir. Chunki, rivojlanayotgan organizmga, bolalar sog‘ligiga, ish qobiliyatini oshirishga ta’sir qiladigan omillardan biri, bu jismoniy faollikdir. Jismoniy faollik, bu jismoniy harakatlanishga tabiiy ehtiyoj hisoblanib, ushbu faollik orqali bolalarni garmonik rivojlanishi va axloqiy, kreativ tarbiyalash shartidir.

**2. Kreativlikni oshirish**. Bolalarda didaktik o‘yinlar vositasida kreativ qobiliyatlarini shakllantirish harakat bilan bog‘liq kreativlikni rivojlantirish uchun topshiriqlarni individual, farqli holatda amalga oshirishga harakat qiladi. Bolani ko‘pincha mustaqil o‘ynashi orqali uning kreativ g‘oyalarni yaratish va noan’anaviy harakat, verbal intellekt, ifoda usullarini, original g‘oyalarni shakllantiradi.

**3. Shaxsni yuksaltirish**. Bolalarda didaktik o‘yinlar vositasida kreativ qobiliyatlarini shakllantirishda barqaror shaxsni rivojlantirish uchun uni turli xil sinovdan o‘tkazish imkoniyatini yaratib beradi. Xususan, kichik guruhlarda intensiv ishlash va o‘z g‘oyalarini taqdim etish bola uchun qulay shartlardir. Bu bilan ular o‘zlarini kognitiv, hissiy va motivatsion taraflarini rivojlantirishlari mumkin.

**4. Ijtimoiy xulq-atvorni yuksaltirish**. Bolalarda didaktik o‘yinlar vositasida kreativ qobiliyatlarini shakllantirishning ijtimoiy (yoki sotsial) ta’limni rivojlantirish uchun bolani tengdoshlari bilan kichik guruhlarda tez-tez ishlashlariga imkoniyat yaratadi. Boshqalar bilan muloqotda bo‘lishda bola hamkorlik qilish, nizolarni hal qilish va tanqid qilish qobiliyatlari kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni sinab ko‘rishlari hamda boshqa odamlar bilan empatiyani mashq qilishlari mumkin.

**5. Idrok (his) qilishni yuksaltirish**. Bolalarda didaktik o‘yinlar vositasida kreativ va idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun ularga turli xil ixtiyoriy mashqlarini bajarishga imkoniyat yaratiladi. Jumladan, kundalik harakatdan farqli bo‘lgan g‘ayrioddiy harakat shakllari bolada his qilishning sub’ektiv ahamiyatli taraflarini uyg‘otishi va idrok qilish qobiliyatini shakllantiradi.

**6. Ifoda etish qobiliyatini yuksaltirish**. O‘yinning transformatsion shakllari orqali bola o‘zlarining taassurotlari va tajribalarni qayta yodga olishlari, ularni beixtiyor ifodalashlari mumkin.

Didaktik o‘yinlar vositasida maktabgacha ta’limda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish maqsad qilinar ekan, bunda tarbiyalanuvchilarda pedagogik faoliyatni tashkil etishda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi:

- aniq maqsadga yo‘naltirilganlik;
- izchillik;
- uzluksiz;
- tizimlilik va majmuali yondashuv asosida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyat jarayoni bo‘lib, bunda bolalarning hayoti va salomatligiga havf soluvchi omillarni bartaraf etish layoqati tarbiyalanadi.

Maktabgacha ta’limda didaktik o‘yinlar vositasida mashg‘ulotlar tashkil etish orqali bolalarda kichikligidan sog‘lom hayot tarziga odatlansa, intellektual jihatdan ham o‘sib rivojlanishida uning o‘z faoliyati muhimligini tushunadi. Didaktik harakatli o‘yinlar, jumladan, tarbiyalanuvchilarni o‘ziga, o‘z tanasiga nisbatan ongli munosabatni shakllantiradi, irodaviy va axloqiy, kreativ sifatlarni hamda bilimlarni mustahkamlash, divvergent tafakkurni rivojlantirish talabini o‘rgatadi.

Bolalarda yana bir didaktik imkoniyati - kreativ qobiliyatlarini shakllantirish daqiqalarda qo‘llanishi bilan tavsiflanadi. Ayonki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kreativ qobiliyatlarini (yangicha fikrlash) o‘rta, katta va tayyorlov guruhlarida mashg‘ulotlar o‘rtasidagi tanaffusda, shuningdek mashg‘ulotlar jarayonining o‘zida o‘tkaziladi. Didaktik o‘yinlar va art-usullar yordamida bola faoliyati va holatini harakat faolligi orqali almashtirishni ko‘zlaydi va bolani hissiy emotsional holatini yaxshilaydi.

Quyidagilar bo‘lajak tarbiyachilarni kreativligini rivojlantirish va kreativ yondashuvlarini kengaytirish maqsadida barcha fanlarda qo‘llash mumkin bo‘lgan interfaol metodlardan namunalar keltiramiz.

## “Chorraha” metodi. Metodning maqsadi:

Ushbu metod zamonaviy, murakkab, ko‘ptarmoqli, hamda muammoli guruhdagi mavzularni o‘rganishga yo‘naltirilgan. Metodning mazmuni shundan iboratki, bunda muammoli mavzuning turli sohalari bo‘yicha bir xil ma’lumot beriladi va ularning har biri alohida mezonlar bilan tahlil etiladi. Masalan, muammo mavzusining afzallik va kamchiliklari, ijobiy-salbiy jihatlari, foyda, zararlari tomonidan chuqur muhokama qilib, o‘rganib chiqiladi. Mazkur interfaol fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda himoya qilishda muvaffaqiyatli rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

**1-rasm.**
***“Chorraha” metodi***




**Metodni tashkil etish:** Talabalarni 4-5 ta kichik guruhlarga bo‘lib, chorraxaning tutashgan markazida, ya’ni o‘rtasida mavzuga oid topshiriq olinadi. Topshiriqlarni to‘rt tarafdagi yo‘llarga muhokamasi yoziladi (1-rasmga qarang).

**Kreativ g‘oyalar g‘ildiragi” metodi. Metodni amalga oshirish tartibi:** Bu interfaol metodda talabalardagi o‘z g‘oyalaridan umumiy g‘oyalar, tahliliy xulosalar chiqarish, qiyoslash, taqqoslash bilan ma’lumotlarni o‘rgarish, xulosa chiqarish, shuningdek, erkin ijodiy va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Ushbu interfaol metoddan ta’lim berishda ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda, o‘tilgan mavzuni mustahkamlashda, uyga berilgan topshiriqni so‘rashda hamda uyga vazifa berishda foydalanish yuqori natijalarni beradi.


**Metodni tashkil etish:** Har bir talaba o‘z g‘oyalarini “Kreativ g‘oyalar g‘ildiragi”ga bitta fikr asosida bayon qiladilar. Barcha g‘oyalar umumlashtirib, muhokama qilinib, umumiy g‘oyalar majmuasi yaratiladi. (2-rasmga qarang).

**CADG” metodi.** “CADG” metodi (creative ability didactic games)- bu metod har qanday tushunchaga mumkin qadar aniqroq ta’rif topishga imkon beradi, talabalarga guruhlarda ishlashni, boshqalar fikriga quloq solishni va umumiy nuqtai nazarni ishlab chiqishni, kreativ fikrlash hamda kritik tahliliy yondashishni o‘rgatadi. Guruhlardagi ish jarayoniga qarab, har bir guruh vakillari navbati bilan o‘z plakatlarini xona taxtasiga ilib qo‘yadi va o‘qiydi.

**2-rasm.**
***“Kreativ g‘oyalar g‘ildiragi” metodi***



**3-rasm.**
***“CADG” metodi***




Berilgan savollarga javob beradi. Keyingi navbat pedagogga beriladi. Pedagog barcha guruhlar ishtirokidagi umumiylikni topishga yordam beradi. (3-rasmga qarang). Didaktik o‘yin mashg‘ulotlari jarayonida kerakli vositalarini to‘g‘ri, unumli va xavfsiz qo‘llashning o‘ziga hos jihatlarini bilish zarur. Ushbu vositalarni quyidagi turlari farqlanadi:

*konselyariya mahsulotlari* – ruchka, qalam, chizg‘ichlar, qaychi, yelim, skoch, flomasterlar hamda turli o‘lchamlardagi oq va rangli qog‘ozlar va boshqa kerakli narsa-buyumlar.

*axborot texnika vositalari* – kompyuter, video kamera, video magnitafon, televizor, proyektor, mikrofon va boshqa kerakli vositalar.

*o‘quv asbob uskunalari* – o‘lchov asboblari, o‘quv proborlari, moslama, o‘quv laboratoriya va ustaxona jihozlari

*mahalliy* – tabiiy materiallardan tayyorlangan vositalar.

Xulosa qilish mumkinki, bugun jahonda ma’lumotlar tizimining tez sur’atlarda o‘sib bormoqdaki, xattoki bu yuksalish ta’lim tizimiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Buning uchun mashg‘ulotlarni oddiy moslashuvi emas, balki uni yangilash va o‘zgartirish jarayonidir. Ba’zi ilmiy nazariyalarda kreativlikning asosiy omili sifatida insonning dezadaptatsiyasi va ijtimoiy muhitga to‘liq moslasha olmaslik holati ko‘rsatiladi. Bugungi zamonaviy tarbiyachi kreativ fikrlovchi, yaratuvchi va o‘z ustida tinimsiz mehnat bilan mashg‘ul bo‘luvchi, yangi metodlarni mohirona qo‘llay oladigan, bolalarni sevadigan shaxs sifatida bo‘lmog‘i lozim. Chunki ta’limni debochasi maktabgacha ta’limdan boshlanadi.